

OGAHIY VA XORAZM ADABIY MUHITI


Mahmudova Dilafuz

*Urganch shahar 1-son kasb-hunar
maktabi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr o`zbek adabiyotining yuruk namoyandalaridan biri Muhammadrizo Erniyozbek o`g`li Ogahiyning ijodiy faoliyati haqida ma`lumotlar keltirildi. Ogahiy tarixnavis sifatida o`zbek adabiyotiga o`ziga xos hissa qo`sha oldi. Ayniqsa boshqa tillardan tarjima qilgan asarlari ham bizning adabiy merosimizni boyitdi.*

Kalit so`zlar: *devon, bayoz, muarrix, miroblik, shakarlang*

Xorazm azal-azaldan buyuk olimlar, shoirlar, san`atkorlar vatanidir. Buyuk tarixga, sivilizatsiyaga va madaniyatga ega bu yurtda o`zbek adabiyoti xazinasiga katta hissa qo`shgan yurik namoyandalar yetishib chiqqan. O`zining barakali ijodi bilan o`z zamonasining baland saviyali ijodkori, shoir sifatida esa nohiyatda didi baland, inson shaxsi, ichki dunyosini tubdan tushunib uni ifodalashda mohir san`atkor, so`z ustasi



Muhammadrizo Erniyozbek o`g`li Ogahiydir. Bizgacha yetib kelgan katta merosi orqali u ko`z o`ngimizda xassos shoir, zabardast muarrix va iste`dodli tarjimon sifatida gavdalanadi.

Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog`ida mirob oilasida tug`ilgan. Xiva madrasalarida tahsil ko`rgan. Arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassik asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o`rgangan.

1829-yilda amakisi va ustozi Munis vafot etgach, Xiva xoni Olloqulixon (1825—1842) Ogahiyning o`rniga mirob etib tayinlagan. Shu davrdan e`tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug`ullangan. Qizg`in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg`ul bir paytda otdan yiqilib, oyog`i „shakarlang“ (shol) bo`lib qolgan (1845). 1857-yildan miroblik vazifasidan iste`fo bergan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g`amgin, kasalmand ahvolda kun kechirgan. U keyinchalik devoni debochasida o`zining hayot yo`lini eslab shunday yozadi:

Etak sonchib belimga chustu choloq,
Qadam har yo`l sari urdum tarabnok.
Qo`lumdun shavq olib ixtiyorum,
Tamomi ko`y aro tushti guzorim.
Yeturdim har jamoatga o`zimni,
Ochib ibrat bila har yon ko`zimni.

Borining xolidin bo`ldim xabardor,
Ayon ko`nglumga bo`ldi barcha asror.

Ogahiy 52-55 yoshlarida „Oshiqlar tumori“ devonini tuzib, unga bayoz to`plamlaridan she`rlar kiritib, dastlabki asarlarini puxtalik bilan tahrir qilgan. Shoir qalamiga mansub g`azallar juda xilma-xildir. Ba`zilarida sof ishq, boshqalarda so`fiylik g`oyalari, boshqalarda shaxsiy kechinmalar ulug`lanadi. Ogahiy she`riyatda ham, tarjimachilikda ham, tarixiy asarlar yozishda ham o`zini Munis an`analarining davomchisi deb bilgan. Ogahiy qoldirgan beshta tarixiy kitobning katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligi, XIX asr Xorazm tarixini yoritish uchun birinchi darajali manba bo`lib xizmat qilgan.

Riyoz ud-davla“, „Zubdat ut-tavorix“, „Jomi ul-vakiati sultoni“, „Gulshani davlat“^[2] va „Shahid ul-ikbol“ tarixiy asarlar muallifi. „Riyoz ud-davla“ asari [Xorazmning](#) 1825—1842-yillari tarixidan hikoya qiladi. „Zubdat ut-tavorix“da ham Xorazmning 1843—1846-yillardagi tarixi tasvirlangan. „Jomi ul-vakiati sultoni“ Xorazmning 1846—1855-yillar tarixiga bag`ishlangan. „Gulshani Davlat“ 1856—1865-yillardagi tarixni qamrab oladi. Ogahiyning so`nggi asari „Shahid ul-iqbol“ 1865—1872-yillarga bag`ishlangan. Ogahiy asarlarida biz adabiy asarga xos yana bir xususiyat – tarixiy shaxslarning obrazini berishga intilish, kitobxonni ularning xulq-atvori, xarakterli belgilari bilan tanishtirishni ham guvohi bo`lamiz. Biz Ogahiy yozgan tarixiy kitoblarni o`rganar ekanmiz, muallif bunda ham tarixchi olim, ham siyosatdon kishi, ham yozuvchi va shoir bo`lib ko`rinadi. Tarixchi sifatida u sanalar, geografik joylar, sodir bo`lgan voqealar haqida aniq ma`lumot berishga intilsa, siyosatchi sifatida xonlikda bo`layotgan ishlar, o`zgarishlar, hukmdorlarning faoliyatini ma`lum darajada muhokama qilishga, yozuvchi sifatida esa o`sha voqealarni badiiy til bilan jonli bayon etishga harakat qiladi. Ogahiy qoldirgan beshta tarixiy kitobning kata ilmiy ahamiyatga ega ekanligi XIX asr Xorazm tarixini yoritish uchun birinchi darajali manba bo`lib xizmat qilishini olimlar qayd etib o`tganlar. Y.G`ulomov, B.Abdullayev, Q.Munirovlarning ilmiy ishlarida bu haqda keng to`xtalgan.

Ogahiy yaratgan tarixiy asarlar ilmiy ma`lumotlarga boyligi, tarixiy va siyosiy voqealarning ancha xolisona bayon etilgani bilan ajralib turadi. Ammo shuni ta`kidlash kerakki, Ogahiy saroy tarixchisi edi.

Qadam aylabon ilm yo`lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh
Ne tunlar manga xobu rohat erdi,
Ne kunlar zamoni farog`at edi.

Xullas, Ogahiy o`z ijodining salmog`i bilan Navoiy va Boburdan keying o`zbek adabiyotining eng iste`dodli sermahsul namoyandasi bo`lib, xilma-xil janrlarga mansub boy she`riyati, kata iste`dod mahsuli bo`lgan o`nlab tarjimalari hamda tarixiy asarlari bilan madaniyatimiz tarixida o`ziga xos o`rin tutadi.



„Ta’viz ul-oshiqin“ Xivada toshbosmada nashr etilgan (1905—1909). O‘zbekistonda ko‘chalar, maktablar, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri, istirohat bog‘i va boshqa muassasalarga Ogahiy nomi berilgan. Qiyot qishlog‘ida Ogahiy bog‘i tashkil etilib, shoirning uy muzeyi ochilgan; muzey oldida Ogahiyga haykal o‘rnatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Majidiy. Ogahiy lirikasi. – T.: 1961;
2. S.Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. -T.: 1963;
3. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. – T.: 1961;
4. N.Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. – T.: 1970;
5. M.Safarboev. Ogahiyning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari. – T.: 1993;
6. N.Jumaxo‘ja, I.Adizova. So‘zdin baqolirog‘ yodgor yo‘qdur. – T.: 1995;
7. Primqulov A. Ogahiy masnaviylari. – T.: 1998;
8. Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon. Maqolalar. – T.: 1999.